

## **Mahalliy byudjetlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashning xorijiy davlatlar tajribasi**

Nozima Ilhom qizi Niyazova  
Javohir Anvar o'g'li Yomg'irov  
Toshkent moliya instituti

**Annotatsiya:** Maqolada xorijiy davlatlarda mahalliy byudjetlarning moliyaviy barqarorligini oshirishning metodlari, vositalari va o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** byudjet tizimi, davlat byudjeti, mahalliy byudjet, byudjet barqarorligi

## **The experience of foreign countries in ensuring the financial stability of local budgets**

Nozima Niyazova  
Javokhir Yomgirov  
Tashkent institute of Finance

**Abstract:** The article describes the methods, means and specific features of increasing the financial stability of local budgets in foreign countries.

**Keywords:** budget system, state budget, local budget, budget stability

Bugungi kunda barcha davlatlar oldida turgan eng muhim mamsala mamlakat moliyasining oldida turgan dolzarb muammolaridan biri - bu mahalliy byudjetlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, hududlarda davlatning o'z funksiya va vazifalarini to'liq bajarish uchun hududlarning o'z daromadlarini oshirish va moliyaviy mustaqilligini ta'minlash hisoblanadi. Bu borada ko'pgina rivojlangan davlatlar eng samarali mexanizmni ishlab chiqishga muvaffaq bo'lishgan va bu chora-tadbirlarning o'zimizga mos jihatlarini mamlakatimiz byudjet tizimida qo'llash mahalliy byudjetlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash muammolarini bir qadar yengillashtirgan bo'lar edi. Albatta, bu jarayonda mamlakatlar soliq va byudjet tizimi o'rtasidagi o'xshashlik muhim xususiyat hisoblanadi. Jumladan, Rivojlangan mamlakatlar mahalliy soliqlar va byudjet tizimi ham Respublikamizdagi ushbu sohalar o'rtasida umumiy o'xshashliklar mavjud bo'lib, bu o'xshashliklar chet davlatlarda ham hududlarning moliyaviy resurslarning asosiy manbai bo'lib, soliqlar va soliqsiz to'lovlar, byudjet transfertlari (dotatsiya, subventsiya,subsidiya, byudjet ssudasi)

tashkil etsada, lekin, har bir davlatda markazlashtirilgan va mahalliy moliyaviy resurslarni shakllantirishning o'ziga xos farqli xususiyatlari ham mavjuddir.

Mahalliy byudjet daromadlarining solikli tushumlarini belgilashda tegishli boshqaruv organlari o'rtasida soliq vakolatlarining taqsimlanishi muhim ahamiyatga ega. Xalqaro amaliyotda soliq vakolatlarini byudjetlar o'rtasida taqsimlashning 3 ta asosiy modelidan foydalaniladi.

Birinchi model - soliqlarni yig'ish bo'yicha vakolatlar chegaralarini o'rnatish va ularni ma'lum hukumat darajasiga birlashtirish. O'zbekiston amaliyotida ushbu modeldan foydalaniladi, rasman har bir soliq turi qaysidir byudjet darajasiga birlashtirilgan, ya'ni umumdavlat va mahalliy soliqlar. Ta'kidlash joizki, deyarli barcha mamlakatlar byudjetlararo munosabatlar amaliyotida hududiy va mahalliy hokimiyat organlarining mahalliy soliqlarni o'rnatishdagi vakolati cheklanganligi tufayli ushbu modeldan qisman chetga chiqish yuz beradi, ya'ni soliqqa tortishning barcha asosiy elementlari respublika soliq qonunchiligi asosida aniqlanadi.

Ikkinchi model - soliqqa tortish bazasidan birgalikda foydalanish. Bu modeldan Rossiya Federatsiyasida foydalanilishini kuzatishimiz mumkin. Xususan, korxonalar foydasiga soliq stavkasi 20% ni tashkil etadi, uning 2% dagi miqdori Federal Byudjetga tushishi ko'zda tutilgan bo'lsa, qolgan 18% i RF sub'ektlari ixtiyorida qoladi.

Uchinchi model - butun mamlakat hududida yagona stavkada soliqqa tortiladigan aniq soliqlardan kelib tushadigan daromadlarni turli darajadagi byudjetlar o'rtasida me'yoriy taqsimlash. Bunda soliqlarning byudjetlararo taqsimoti asosida turli xil mezonlar yotishi mumkin: aholi soni, biror-bir hududning geografik joylashuvi, iqtisodiy ahvoli va h.k. Soliqlarni taqsimlash miqdori va tartibi turli muddatlarga o'rnatilishi mumkin. Umumdavlat soliqlarining bir qismi tegishli davlat organi tomonidan o'rnatilgan me'yorlar bo'yicha byudjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida taqsimlanadi. Turli davlatlarda turli hil modellardan foydalaniladi. Masalan, Germaniya modelida olinadigan soliq daromadlari federal byudjet va xududiy birlik hisoblangan "yer"lar o'rtasida taqsimlansa, Kanada va AQSHda soliq daromadlarining taqsimlanishi amaliyotda uchramaydi.

Rossiyada byudjet tizimi darajalari o'rtasida soliq vakolatlarini taqsimlashning rasman barcha uchta shaklidan foydalaniladi. Federal soliqlarning barcha byudjet darajalari o'rtasida taqsimlanish shakli amaliyotda ko'proq qo'llaniladi, ikkinchi o'rinda, barcha darajadagi byudjet daromadlari bazasidan birgalikda foydalanish turadi, juda ham kam hollarda daromad manbalaridan alohida foydalanish hollari kuzatiladi. Deyarli barcha turdagi soliqlar federal va mahalliy byudjetlar o'rtasida taqsimlanadi.

Soliqlarni normativlar bo'yicha taqsimlash O'zbekiston byudjet tizimida ham uchraydi. O'zbekiston Respublikasida yuqorida aytib o'tilgan birinchi va ikkinchi modellar byudjetlararo munosabatlarni tartibga solish uchun keng qo'llaniladi.

Qonunchilikka muvofiq Qoraqolpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar taqchilligiga yo'l qo'yilmaydi. Ushbu byudjetlar taqchilligi O'zbekiston Respublikasi respublika byudjeti va yuqori turuvchi mahalliy byudjetlar hisobidan moliyaviy yordamlar (dotatsiya, subvensiya, beriladigan vositalar va byudjet ssudalar) va normativ ajratmalar yordamida qoplanadi. Hozirgi paytda deyarli barcha turdagi soliq turlarining byudjetlararo taqsimlanishi kuzatilmoqda. Umuman olganda byudjetlarga tushadigan barcha soliqlarni ikki guruhga bo'lish mumkin; mahalliy soliqlar va yuqori byudjetdan keladigan ajratmalar.

Har bir mamlakatning soliq qonunchiligiga asosan mahalliy soliqlar hududiy byudjetlarning muayyan turlariga biriktirilgan. Ushbu soliq stavkalari odatda mahalliy boshqaruv organlari tomonidan belgilanadi. Turli mamlakatlarda bunday soliqlarning soni 20 tadan 100 tagacha, ularning hududiy byudjetlar daromadlaridagi ulushi esa 30 % dan 70 foizgacha bo'lgan ulushni tashkil etadi. Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda mahalliy soliqlar tizimida to'g'ri soliqlar katta ulushni tashkil etadi: jami soliq tushumlarining o'rtacha 70-75 % daromad, foyda va mulkdan olinadigan soliqlar ulushiga to'g'ri keladi. Iste'moldan olinadigan soliqlar 3-4 % ni tashkil etadi, boshqa soliqlar 20-25 % ni tashkil etadi. Chexiyada to'g'ri soliqlar ulushi 85 % ni, egri soliqlar esa 15 % ni tashkil etadi<sup>1</sup>.

To'g'ri soliqlar ichida foyda, daromad hamda turli mulk soliqlari tarkibi ancha farq qiladi: Skandinaviya mamlakatlarida barcha soliq tushumlarining 80-90 % daromad va foyda solig'i hissasiga to'g'ri keladi; Belgiya, Germaniya, Avstriyada bu ko'rsatkich 50 % dan oshmaydi. Boshqa mamlakatlardan esa xududiy organlar byudjetlaridagi soliq tushumlarining asosiy qismi turli shakldagi mulklardan olinadigan soliqlar hisobidan shakllanadi. Jumladan, Irlandiyada yagona mahalliy soliq hisoblanadi; Niderlandiya jami soliqlar daromadlarining 2/3 qismini shu soliqlar tashkil etadi; Yaponiyada 48 % soliq daromadlarini turar joy binolari uchun soliqlar va 21 % ni ko'chmas mulk uchun soliqlar tashkil etadi.<sup>2</sup>

Fransiyaning ko'pchilik shaharlarida kommunal jamoat transportiga soliq belgilangan. Odatda u aholi soni 30 mingdan yuqori bo'lgan shaharlarda qo'llanadi. Bu soliqni yollanib ishlovchilar soni to'qqiztadan yuqori bo'lgan barcha korxonalar to'laydi. Mahalliy hokimiyat organlari aholi bilan kelishgan holda boshqa vaqtinchalik va doimiy soliqlar - yo'llar quvvati uchun, trotuarlar qurish uchun, ko'chalarni supurish uchun va boshqa soliqlar ham joriy etishlari mumkin. Yuqorida keltirib o'tilgan mahalliy byudjetlar bo'yicha soliqlar salmog'ini oshirish va soliq bazasidani kengaytirish yuzasidan xorijiy mamlakatlar ijobiy tajribalarini O'zbekistonda qo'llash o'z samarasini beradi deb o'ylaymiz.

<sup>1</sup> Budget Transparency in Czech Local Government. 16th Annual Conference on Finance and Accounting, ACFA Prague 2015, 29th May 2015. Procedia Economics and Finance 25 ( 2015 ) 598 – 606. www.sciencedirect.com

<sup>2</sup> Дробозин Л.А. «Финансы» Учебное пособие. Москва. 2006 г. 271 стр.

AQSh hamda respublikamiz mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirish jarayonidagi eng ahamiyatli va farqli jihati shuki, AQShda u yoki bu soliq turlarining hududlar bo'yicha tabaqalashtirilgan stavkalarining qo'llanilishi hamda ayrim soliqlarning ba'zi hududlarda amal qilishi boshqa hududlarda esa amal qilmasligi bilan ajralib turadi. Jumladan, hududlarning asosiy moliyaviy resurslaridan shakllantirish manbai bo'lib, savdo-sotiq uchun solig'i ayrim hududlar uchun 6 foiz bo'lsa, boshqasida 1 foiz va shu kabi tartibda undiriladi. Bundan tashqari iqtisodiy tadbirkorlik solig'i Kaliforniya shtatida qo'llanilsa, boshqa bir qator hududlarda amalda qo'llanilmasligi holati ham e'tiborlidir. Savdo-sotiq solig'i shuningdek, ayrim hududlarda xususan, Alyaska, Delaver, Nyu-Djersi shtatlarida amal qilmasada, boshqa hududlarda esa mahalliy hokimiyatlarning o'zlari belgilagan stavkalari asosida tebranib turishi mumkin<sup>3</sup>. Ta'kidlash joizki, AQShda mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishda mol-mulk solig'i yuqori ulushni egallaydi. Masalan, Nyu-York shtati mahalliy byudjetida mazkur soliq turi hisobidan jami moliyaviy mablag'larning 40 foizga yaqini shakllanadi, o'z navbatida, bu soliq turi ham barcha hududlar uchun bir xil tartibda belgilanmagan. AQShda mol-mulk solig'ining o'rtacha stavkasi 1,4 foizni tashkil etsada, bu Illinoys shtatida uning stavka miqdori 6,7 foizga tengdir. Bundan tashqari AQShda hududlarning moliyaviy resurslari ayrim turdagi mahsulotlarni sotish uchun litsenziyalar, uy hayvonlarini saqlash uchun ruxsatnomalar va shu kabilardan tushgan yig'imlardan ham shakllanadi.

Buyuk Britaniyada esa kuchmas mulklar, yer, uy-joy, savdo majmualari hamda zavod va fabrikalardan undiriladigan soliqlar mahalliy byudjetlar daromadlarining asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi. Angliyada mol-mulk qiymati muntazam ravishda qayta baholashdan o'tkazib turiladi. Soliqqa tortish maqsadlarida mol-mulkni baholashni ichki daromadlar Boshqarmasi qoshidagi maxsus baholash komissiyasi amalga oshiradi<sup>4</sup>. Bizning byudjet tizimimizda ham mol-mulk solig'i mahalliy soliqlar sirasiga kirib, mahalliy byudjetlarni moliyaviy barqarorligini ta'minlashda ulkan ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, yuqorida ta'kidlab o'tilgan Angliyaning mol-mulk solig'i borasidagi tajribasini mamlakatimiz soliq tizimini takomillashtirish maqsadida joriy etilsa, bir qator ijobiy natijalarga olib kelardi. Buning sababi, shundaki hududlarda aholining ko'pgina mol-mulkleri, jumladan, uy-joy va boshqa qurilish inshootlari, hisobga olinmagan, ya'ni ularning ko'p qismining kadastr hujjatlari mavjud emas, bu esa imkoniyat darajasidan kam miqdorda mahalliy byudjetlarga kam daromad kelib tushadi. Bundan tashqari, bu tajriba aholi bo'sh, foydalanilmayotgan bino va inshootlari, mol-mulklaridan unumli foydalanib, ushbu joylarda tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yib tegishli byudjetga soliqlar hisobida qo'shimcha daromad tushishiga imkoniyat yaratib, hududning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini tezlashtiradi.

<sup>3</sup> Griffin & Ebert. Business. 7th edition. Prentice-Hall. 2004. p. 42.

<sup>4</sup> Бард В., Павлова Л. Налоги в условиях экономической интеграции. // -М.: "Кнорус". 2004. стр 81

Bundan tashqari, inflatsiyaning yuqori va tez o'suvchanligini hisobga olib, soliqqa tortish maqsadida mol-mulklarni muntazam qayta baholab borish O'zbekiston soliq tizimi uchun ham ko'pgina ijobiy natijalarga ega bo'lishga imkoniyat yaratadi. Shuningdek, mol-mulkni qayta baholashni soliqqa tortish maqsadlariga muvofiqlashtirish uchun qayta baholash organlarining soliq xizmati qoshida tuzish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Fransiya mahalliy byudjeti daromadlari tarkibida ham mol-mulkdan solig'i yuqori salmoqqa ega. Bu soliqqa mol-mulk, mol-mulk huquqi va qimmatbaho qog'ozlar tortiladi. Mol-mulk tarkibiga binolar, sanoat va qishloq xo'jalik korxonalari, harakatlanuvchi mulk, aktsiyalar, obligatsiyalar va boshqalar kiradi. Shunisi e'tiborga molikki, Fransiyada ba'zi mol-mulk ushbu soliq turidan qisman yoki to'liq ozod etilgan. Shular jumlasiga professional faoliyat doirasida foydalanish uchun mo'ljallangan mol-mulk, qishloq xo'jaligiga oid ba'zi mol-mulk turlari, tarixiy yodgorlik buyumlar, badiiy va kollektsiya buyumlari kiradi. Bizning soliq tizimimizda ham shunga o'xshash holat, ya'ni mol-mulk solig'idan to'liq yoki qisman ozod etish to'g'risida misollarni ko'rishimiz mumkin. Masalan, mamlakatimizda kommunal xo'jalik obyektlari, madaniyat va san'at, ta'lim, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport va boshqa ob'ektlar soliq to'lashdan ozod etilgan.

Germaniya Federasiyasida esa, byudjet tizimining asosiy daromad manbai jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, korporatsiyalardan olinadigan foyda solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, tadbirkorlik solig'i, mol-mulk solig'i, yer solig'i, yer uchastkalarini sotish jarayonidan undiriladigan solig'i, sug'urta badallari, merosdan olinadigan soliq, transport solig'i, bojxona bojlari va davlat yig'implari hamda ayrim turdagi mahsulotlar uchun aktsiz soliqlari hisobidan shakllanadi. Mazkur mamlakatda ham hududlarning moliyaviy resurslarini shakllanishida yuqori byudjetlardan ajratiladigan subsidiya, subventsiya va dotatsiyalar ham amaliyotga joriy qilingan. Shuningdek, umumdavlat soliqlarida Respublikasidagidek quyi byudjetlarga muayyan me'yorlar asosida ajratiladi. Masalan, korporatsiyadan olinadigan foyda solig'ining 50 foizi federal byudjetga, 50 foizi hududlarga. Mamlakatimizda esa, Respublika byudjetidan mahalliy byudjetlarga mazkur yuridik shaxslardan olinadigan soliqning 100 foizigacha miqdori hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqib taqdim qilinmoqda. Bu esa mamlakatimiz hududiy byudjetlaridagi holat Germaniya mahalliy byudjetlaridagi vaziyatdan ancha yomonligini ko'rsatadi <sup>5</sup>.

Yaponiya soliq tizimida mahalliy byudjetlarning daromadlarini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratiladi. 90-yillarning boshlarida hududlarning umumiy moliyaviy resurslari 80,41 trln. ienani tashkil etib, ulardan mahalliy soliqlar 33,45 trln. iena yoki mahalliy byudjet daromadlarinig 41,6 foizini tashkil etadi. Bundan tashqari 14,33 trln.

<sup>5</sup> Александров И. Налоговые системы России и зарубежных стран. -М.: "Бератов-Пресс". 2002. Стр. 121

iena yoki 17,8 foizi umumdavlat soliqlaridan berilgan ajratmalarga to'g'ri keladi. Hududlarga bu davrda maqsadli tarzda 10,65 trln. iena (mahalliy byudjetlarning 13,2 foizi) dotatsiya ajratilib, qolgan 20,3 trln. ien soliqsiz to'lovlar hissasiga to'g'ri kelgan. Mahalliy byudjet moliyaviy mablag'lari shakllanish manbalariga qaraydigan bo'lsak, jami moliyaviy mablag'alari 33,45 trln. ienani tashkil etib, ularning 35,6 foizi daromad solig'i, 41,1 foizi mol-mulk solig'i qolgan 27,2 foizini esa iste'mol solig'i hisobiga shakllanmoqda<sup>6</sup>.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Respublikamiz soliq tizimida mahalliy byudjet moliyaviy resurslarini shakllantirish mexanizmi bilan xorijiy davlatlar, xususan, Amerika, G'arbiy Evropa davlatlari, Yaponiya va shu kabi iqtisodiy rivojlangan davlatlarda umumiy o'xshashliklar hamda o'ziga xos jihatlar mavjud. Ushbu jihatlar federal va mahalliy byudjet daromadlarining soliqlar va soliqsiz to'lovlardan shakllanishi, umumdavlat soliqlardan hududlarga muayyan normativlarda ajratmalar taqdim etilishi hamda byudjetlararo transfertlar shaklidagi subventsiya, subsidiya va dotatsiyalar berilishi byudjet tizimi o'rtasida o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish va shu kabilardan iboratdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Н.Хайдаров. Солиқлар ва солиққа тортиш масалалари. Ўқув қўлланма. Тошкент: Академия, 2007
2. Nizamiddin Khaydarov. Agricultural Development in Uzbekistan: Agricultural Reforms versus Transboundary Water Issues. Developing Country Studies. ISSN 2224-607X (Paper) ISSN 2225-0565 (Online) Vol.5, No.10, 2015
3. Nizamiddin Khaydarov. INTERNATIONAL EXPERIENCE OF THE DEVELOPMENT OF TOURISM IN UZBEKISTAN. 2021
4. Хайдаров Н.Х. Молия: умумдавлат молияси. Т.: Иқтисод-молия, 2009
5. Низамиддин Хайдаров. Роль таможенного дела в ускорении межгосударственных экономических отношений. Техничко-технологические проблемы сервиса, 2019
6. Низомиддин Ҳайдаров, Фурқат Ҳалимов. Жисмоний тарбия ва спорт муассасалари ва уларнинг мамлакат Ижтимоий-иқтисодий ҳаётида тутган ўрни. Иқтисодиёт ва таълим. 2020/11/26
7. N Haydarov. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O 'quv qo 'llanma. Toshkent: Akademiya, 2007
8. G.G. Nazarova, N.X.Haydarov, M.T.Akbarov. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. - T.: MChJ "RAM-S", 2007

<sup>6</sup> Бард В., Павлова Л. Налоги в условиях экономической интеграции. // -М.: "Кнорус". 2004. стр 96

9. ТС Маликов, НХ Хайдаров. Молия: умумдавлат молияси. Тошкент:«IQTISOD-MOLIYA, 2009
10. Т.Маликов, Н.Хайдаров. Бюджет: тизими, тузилмаси, жараёни. 2007
11. Т.С. Маликов, Н.Х. Хайдаров. Финансы: государственные финансы. Учебное пособие. Экономика и финансы. Ташкент. 2009
12. Zaripov Khusan Bakhodirovich. Trends in the Development of the Tax System of the Republic of Uzbekistan. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 2022
13. Zaripov Khusan Bakhodirovich. Current state of taxation of commercial banks in our country. British Journal of Global Ecology and Sustainable Development. 2022/11/1
14. Мутабар Жураевна Темирханова, Хусан Баходирович Зарипов, Ли Шаоминь. Совершенствование цифровой мобильной связи в современном мире. Бюллетень науки и практики, 2020
15. Зарипов Хусан Баходирович. Методологический конструктив налогового анализа влияния системы налогообложения на деятельность хозяйствующего субъекта. Международный научно-образовательный электронный журнал «Образование и наука в XXI веке» 2021/11
16. Хусан Зарипов. Налоговое планирование предприятий в Республике Узбекистан. Общество и экономика, 2019
17. ОА Шодиев. Особенности применения упрощенной системы налогообложения в Узбекистане. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук.2017
18. Olimjon Shodiev. Excise tax: general and special. Академические исследования в современной науке. 2022/12/5
19. ОА Шодиев. Акцизное налогообложение в Узбекистане: общее и особенное. Экономика и бизнес: теория и практика. 2022
20. ОА Шодиев. Акцизный налог в Узбекистане: особенности и проблемы современного развития. Экономика и бизнес: теория и практика. 2021
21. U O'roqov, Zulayho Abdujobir qizi Tursunova. O'zbekistonda davlat tashqi qarzini samarali boshqarishda davlat qarziga xizmat ko'rsatish kafolat jamg'armasining o'rni. Science and Education, 2022
22. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишнинг устувор йўналишлари. Science and Education, 2022
23. У.Ю.Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар шаффофлиги ва очиклигини таъминлашнинг устувор йўналишлари. Бизнес-Эксперт журнали, 2020 й. 4-сон.
24. У.Ўроқов. Давлат харидлари тизимида электрон харидлар ҳажмини ошириш масалалари. 2021

25. У Уроков. Мах, аллий бюджетлар мустикаллигини оширишнинг устувор йуналишлари. "Science and Education" Scientific Journal/ISSN. 2022/6
26. У.Ю.Ўроқов. Қишлоқ хўжалиги субъектларини солиқ имтиёзлари орқали рағбатлантириш. Иқтисодиёт ва таълим. 2015
27. УЮ Ўроқов, ФШ Сулаймонов. Хўжалик юритувчи субъектлар фаолиятида электрон ахборот алмашишнинг аҳамияти ва уни такомиллаштириш масалалари. 2014/9
28. U O'roqov, Zulayho Abdujobir qizi Tursunova. O'zbekistonda davlat tashqi qarzini samarali boshqarishda davlat qarziga xizmat ko'rsatish kafolat jamg'armasining o'rni. Science and Education. 2022/6/30
29. U.Yu.O'roqov. Davlat xaridi. O'quv qo'llanma. T.:«Nihol print» OK, 2022
30. У.Ўроқов. Ҳазначилик тизимида бюджет маблағларидан самарали фойдаланиш масалалари. 2017
31. Ўзбекистонда давлат харидлари тизимини такомиллаштириш масалалари.2014
32. Uchqun O'roqov, Javohir Yomg'Irov. Davlat xaridlarini tashkil etish modellari: afzalliklari va kamchiliklari. Science and Education, 2022
33. У Ўроқов. Бюджет маблағларидан самарали фойдаланишни таъминлаш йўллари. 2017
34. У Ўроқов. Ўзбекистонда давлат харидлари тизимини такомиллаштириш масалалари. 2014
35. Uchqun Yunusovich O'roqov, Farzona Axmadqul Qizi Abduazimova. Davlat maqsadli jamg'armalarining mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi ahamiyati. Science and Education. 2022
36. УЮ Уроков, КР Чинкулов. Ўзбекистонда давлат харидларининг такомиллашувининг ҳуқуқий асослари. Халқаро молия ва ҳисоб» журнали. 2017
37. УЮ Уроков. К, ишлок хўжалиги субъектларини солиқ имтиёзлари орқали рағбатлантириш. Иқтисодиёт ва таълим. 2015
38. Urokov Uchqun Yunusovich, Toshmatova Rano Gaipovna, Sharapova Mashhura Azadovna, Ismailova Nasiba Komiljonovna, Isaev Husan Mansurovich. Matters of revenue generation and cost optimization while increasing the efficiency of the state budget. Journal of Hunan University (Natural Sciences). 2021/12
39. У Уроков. Маҳаллий бюджетлар мустикаллигини оширишга оид назарий қарашлар. 2020
40. U Yu O'roqov, NM Anvarov. Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda byudjet-soliq siyosatining ahamiyati. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. 2022/6/30
41. O'roqov Uchqun Yunusovich, Moyliyev Murod Baxtiyorovich, Muzaffarov Muhammadjon Maxmud o'g'li. Mamlakat investitsiya jozibadorligini oshirish orqali



xalqaro kapitalni jalb qilish masalalari. Science and Education” Scientific Journal/ISSN, 2022

42. И Мамаджанов, Қ Топаров, У Ўроқов, О Ғайбуллаев. Ўрта муддатли бюджет. Наманган шаҳар бюджети мисолида. Т: Baktria press, 2017

43. О Ғайбуллаев, У Ўроқов. Ўзбекистон Республикасида бюджет тизими ва жараёни. Т: Baktria press, 2016

44. У Ўроқов, И Иргашев, О Ғайбуллаев. Фуқаролар иштирокидаги маҳаллий бюджет Т: Baktria press, 2022

45. У Ўроқов, Д Ускенбаева. Ўзбекистонда ташаббусли бюджетни жорий этишнинг ташкилий-ҳуқуқий асослари. Science and Education, 2022

46. Uchqun Yunusovich O'roqov, Nozimaxon Jahongir qizi Rahimova. INVESTITSİYALARNI JALB QILISHDA QULAY INVESTITSIYA MUHITINING AHAMIYATI. RESEARCH AND EDUCATION.2022

47. Uchqun Yunusovich O'roqov, Odiljon Sheraliyevich Olimboyev. O'zbekistonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va moliyalashtirish masalalari. Science and Education, 2022

48. SHERALI SULTONOV, SHERZOD ALILOV, JASUR RAZZAKOV, KHUSAN ISAEV. DEVELOPMENT WAYS OF STOCK MARKET IN UZBEKISTAN (IN THE CASE OF “TASHKENT” REPUBLICAN STOCK EXCHANGE). Journal of Critical Reviews.2020

49. У Ўроқов. Ўзбекистон Республикасининг бюджет кодекси: моҳияти, аҳамияти ва афзалликлари. “Молия” журнали, 2014

50. U.Yu. O'roqov, S.h B. Abdulazizov. Ta'lim tizimini moliyalashtirish amaliyoti. Science and Education, 2022. № 7

51. SHERALI SULTONOV, SHERZOD ALILOV, JASUR RAZZAKOV, KHUSAN ISAEV. DEVELOPMENT WAYS OF STOCK MARKET IN UZBEKISTAN (IN THE CASE OF “TASHKENT” REPUBLICAN STOCK EXCHANGE). Journal of Critical Reviews.2020

52. Sherali Sulstonov Nuraliyevich, Nodira Soatova Bobokhanovna. Ways of Fund Market Development in Uzbekistan. Eurasian Scientific Herald.2022

53. Sherali Sulstonov. Directions of state regulation of the stock market. International Journal of Economic Growth and Environmental. 2021

54. Sherali Sulstonov, Nodira Soatova. Factors strengthening the tax base of local budgets. Journal of Hunan University. Vol. 49. No. 12 December 2022